



## O‘zbek adabiy tilidagi ayrim lakunalarni dialektizmlar bilan boyitish

*Ochilova Zilola Xabibjon qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*

*Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3-bosqich talabasi*

[Ochilovazilola02@gmail.com](mailto:Ochilovazilola02@gmail.com) +998939371104

***Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda adabiy tilimizda mavjud bo‘lmagan lekin shevalarimizda uchraydigan ayrim so‘zlar tahlil qilinadi. Ularning ijtimoiy – lisoniy ahamiyati haqida munozara yuritiladi va dialektizmlarimizni o‘zbek adabiy tilining ichki boyish manbasiga qo‘shadigan hissasi o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** adabiy til, ichki imkoniyat, sheva, ichki boyish, dialektizm, lakuna, leksik, sema, ijtimoiy-lisoniy.*

***Abstract:** The article analyzes some words that do not exist in our literary language today but are found in our dialects. Their socio-linguistic significance is discussed and the contribution of our dialects to the source of internal enrichment of the Uzbek literary language is studied.*

***Key words:** literary language, internal opportunity, dialect, internal enrichment, dialecticism, lacuna, lexicon, sociolinguistic.*

O‘zbek tili boy til, uning boyligini anglash uchun shevalariga nazar solish kifoya. Adabiy til leksikasining shevalar hisobiga boyishi asrlar davomida shakllanib kelgan hodisa hisoblanadi, lekin hozirgi kunda shevalarimizda mavjud adabiy tilimizda lakuna birlik bo‘lib qolayotgan so‘zlarimiz ham mavjud. Quyida ushbu so‘zlardan ayrimlarini tahlilga tortamiz. Xalqimiz shevasida ko‘p qo‘llaniladigan lekin adabiy til lug‘atida mavjud bo‘lmagan bog‘dorchilik, dehqonchilik va kundalik hayotimizda ishlatiladigan ko‘pgina so‘zlarning o‘rni adabiy til lug‘atida mavjud emas. Mavjud bo‘lganlari esa so‘z birikmasi hisoblanadi. Quyida tahlil qilinadigan



soʻzlar soʻz birikmasi oʻrniga yagona negizli soʻz ishlatish hamda lakunalarni toʻldirishga xizmat qiladi. Eʼtibor beradigan boʻlsak, oʻzbek xalqi juda ham mehmondoʻst xalq. Mehmon kutish bilan bogʻliq ajoyib urf-odatlar-yu soʻzlari bor. Shu soʻzlardan biri bu Toshkent shahri va unga yondosh hudud aholisi shevasida ishlatiladigan *chaq chuq* soʻzi bu oʻzbek adabiy tilida yagona leksema sifatida mavjud boʻlmagan faqat chaqiladigan mahsulotlar bodom, yongʻoq, pista va shunga oʻxshash faqat chaqiladigan mahsulotlarga nisbatan ishlatiladigan soʻz. Chunki quruq mevalar deganda juda koʻp narsalar tushuniladi va aynan chaqiladigan mevalarni nomlovchi leksema adabiy til lugʻatida mavjud emas.

Samarqand va Buxoro viloyatlarining ayrim hududlari va unga yondosh hududlarda ishlatiladigan *qand-qurs* yoki *pista-bodom* soʻzlari ham mehmon kutish uchun tayyorlanadigan quruq mevalar, chaqiladigan mahsulotlar va shirinliklarga nisbatan ishladi bu soʻzlar adabiy tilda yagona soʻz sifatida mavjud emas. Yuqorida keltirilgan soʻzlar adabiy tilimizdagi lakunlarni toʻldirish uchun xizmat qiladi. Dehqonlarimiz nutqida koʻp kuzatiladigan *issiq oldi*, *issiq urdi*, *garimsel*, *garm urdi* kabi birikmali hamda yaxlit oʻzakli *otashak* soʻzi hali pishib yetilmagan lekin issiq havoda nobud boʻlgan, soʻlib qolgan yoki kattalashmay kichik va moʻrt boʻlib qolgan meva va sabzavotlarga nisbatan ishlatiladigan bu tushuncha faqat shevadagina mavjud. *Otashak* soʻzi asosan oʻzbek-tojik shevasiga mansub aholi tilida koʻp kuzatishimiz mumkin bu soʻz tojik tilidan olingan boʻlin chaqmoq, momoqaldiroq va yiring maʼnolariga egaligi bilan (Farangi zaboni tojiki.1969:253-bet,2-tom) oʻzbek shevalarida qoʻllaniladigan tushunchadan ancha farq qiladi.

Xalqimiz orasida kundalik hayotda qoʻllaniladigan dialektizmlardan biri bu *sholqit* (Yoʻdoshev,2002:132-bet) bu soʻz Samarqand viloyati Urgut tumani shevasida *sholqit* shaklida ishlatiladi bu soʻz yaroqsiz maʼnosiga egaligi bilan sara,sarxil va yaxshi soʻzlariga antonimlik xususiyatiga ega. Sholqit soʻzida salbiy va ijobiy boʻyoq ottenkasi mavjud, yaʼni umuman isteʼmolga yaroqsiz mevani salbiy ottenka ifodalasa, qaysidur qismi ezilgan qolgan sizmi esa isteʼmolga yaroqli bolgan



meva yoki sabzovotni esa ijobiy bo‘yoq ottenkasi ifodalaydi. Shifokor xalqimiz tomonidan to‘rt faslda ham sevib iste‘mol qilinadigan o‘rik sharbatining shevamizda bir qancha yaxlit asosli nomlari mavjud bu so‘zlar asosa Buxoro va Bog‘ot shevasida va unga yondosh hududlar shevasida ko‘p uchraydi.

O‘rik sharbati deb nomlanuvchi chanqoqbosti ichimlik g‘olin (Jamolxonov ,1991:180-bet) ya‘ni turshak, qoqidan tayyorlanadi. Turshakning g‘olin deb atalishi ham adabiy tilimizda mavjud emas. G‘o‘lindan tayyorlanadigan salqin ichimlik Buxoro viloyatining Qorako‘l Shevasida go‘lim deb atalishi yoki Buxoro shevasida go‘linob deb atalishi (O‘XSHL,1971:75-bet) yoki ayrim shevalarimizda hususan Urgut tumani shevasida buni g‘o‘lung deb atalishi va bu atamalarni o‘rik sharbati bilan birgalik adabiy til lig‘atiga kiritish bu leksemalarning xalqimiz orasida keng qo‘llanilishi va yaxlit asosli so‘zni ommalashuviga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida huni ayta olamizki o‘zbek adabiy tilining boyish manbasi siftida o‘z ichki manbalari asosida boyitish va lakunalarni to‘ldirish eng samarali usullardan biri.YUqorida takidlangandek so‘zlar shevalarimizda juda ham ko‘p uchraydi ularni tahlik qilib o‘rganish kifoya. Bog‘dorchilik va dehqonchilikga oid birliklar ham juda ko‘p. Ayniqsa uzum navlariga oid birliklar e‘tiborga sazovor. Uzum navlariga oid birliklarni ommalashtirish adabiy til lug‘atini boyitish bilan birga yangi ilmiy terminlarni paydo bo‘lishiga xizmat qilib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Ashurboyev O‘zbek diektalogiyasi „Navro‘z“ nashriyoti Toshkent ,2016:136-bet
2. P.Yoldoshev Toshovuz viloyatining o‘zbek shevalaring leksik xususiyatlari. Fil.fan.nom.diss. Toshkent, 2016:128-bet.
- 3.Farangi zaboni tojiki. 1969:659-bet.
- 4.O‘zbek tiling izohli lug‘ati. 5 jildli (tuzatilgan 2- nashr) „O‘zbekiston nashriyoti“ Toshkent 2020



5. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati ( masul muxarrir Shoabdurahmonov. Sh) “Fan” nashriyoti, Toshkent 1971: 409-bet.
6. A.Hasanov „Bog‘dorchilikga oid leksik lakunalarni dialektizmlar bilan boyitish masalalari” LDM.Toshkent.